

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZONIMIK KOMPONENTLARNING O'XSHASHLIKLARI VA FARQI

Fozilov Mirvoxid Mirsultonovich

GulDU Filologiya fakulteti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11221385>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz va o'zbek frazeologiyalaridagi zoonomik komponentlarning o'xshashliklari va farqlarini taqqoslashga, shuningdek milliy madaniyatning ramziy tizimlarini ochib berishga imkon beradigan zoomorfik madaniy ramzlarga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Zoonimlar, milliy xususiyatlar, zoonomik komponentlar, frazeologik birliklar, frazeologiya, milliy timsol.

Til va madaniyatning munosabati va o'zaro ta'siri zamonaviy tilshunoslikning asosiy muammolaridan biridir, chunki "ko'p hollarda inson dunyoning o'zi bilan emas, balki uning tasvirlari, kognitiv tushunchasi va modellari bilan shug'ullanadi. Inson dunyoni (yoki turli olamlarni) uning madaniyati va tili prizmasi orqali, xususan, madaniyatning ajralmas qismi sifatida tasavvur qiladi" Makovskiy (1996).

Zoonomik frazeologik birliklar madaniyat va uning o'ziga xosligini ko'rsatish uchun eng mos misollardan biridir. Zoonimlar hayvonlarning nomlari yoki ularning taxalluslari bo'lib, alohida leksik birliklar va turg'un iboralarning tarkibiy qismlari sifatida dunyoning barcha tillarida keng tarqalgan bo'lib, eng qadimiy va kengaytirilgan turg'un birikmalardir. Zoonomik leksikada tilning boshqa sohalariga qaraganda qo'shimcha til voqeligini baholash xususiyatlari yorqinroq namoyon bo'ladi. Bragarnikning so'zlariga ko'ra turli tillardagi hayvonlar nomi turli sifatlarni o'z ichiga olishi xarakterlidir. Zoomorfizmlar ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan mentalitetni ifodalovchi madaniy-milliy me'yorlar, stereotiplar bilan bog'liq.

Stankevich O. S o'zining "Ingliz tilidagi og'zaki zoonimlarning semantik bo'limi" nomli maqolasida hayvon nomlari asosidagi frazeologizmlar hayvonlarning tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlari ustidan ko'p asrlik insonlarning amaliy kuzatishlarini aks ettirishi haqida alohida to'xtalib o'tgan. Insonlarning hayvonlarga ijobiy munosabatini bildirgan holda, zoomorfimlar madaniy-axborot vazifasini bajaradi degan g'oyani ilgari surgan. Stankevich O. S asosiy fe'l vazifasini bajaradigan ba'zi zoonimlarni tahlil qilib, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turkumlarga ajratgan. Asosiy misollar bilan tanishib, o'zbek va ingliz tilidagi o'xshashlik, farqli jihatlarni solishtiramiz.

Dastlabki guruh "Inson tomonidan qilingan muayyan harakatlarni tavsiflovchi birinchi asosiy fe'llar" deya nomlanadi. Va o'z navbatida quyidagi kichik yo'nalishlar asosida guruhlanadi:

### **Ovqatlanish:**

To Hog — chaynamasdan yutib yubormoq;( Chaynamay yutmoq)

To wolf down — ovqatni juda tez yemoq, yutmoq;( Tez tanavvul qilmoq)

To pig out — ko'p miqdorda ovqat yemoq. (Bo'kib yemoq)

### **Yolg'on, qo'rqitish ma'nosidagi fe'llar:**

To buffalo — (birovni) qo'rqitmoq yoki qo'rqitmoq; (hayajonga yoki biroz qo'rquvga tushmoq)

To pigeon —aldamoq; (Muttahamlik qilmoq)

To fox — bironi aldamoq yoki chalg'itmoq; ( tulkilik qilmoq) O'zbek tilidagi zoonimlarning aynan mana shu xususiyatlarini solishtirsak, ingliz tili sifatida bir qancha og'zaki zoonimlar keng qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida hayvonlar nomi emas, balki hayvonlarning xususiyatlari, harakatlari odatda asosiy fe'l sifatida qo'llaniladi. Masalan: "akillamoq" fe'li itlarning harakatini ifodalaydi. Bu baland ovozda va foydasiz gapirishni anglatadi. Biroq, bu misolda zoonimlar to'gridan to'g'ri ishtirok etmasa ham, semantik ma'nosi "it" ga borib taqaladi.

Ingliz tilidagi To fox fe'li o'zbek tilidagi "Tulkilik qilmoq" iborasi bilan to'liq ekvivalent bo'la oladi. Ularning ma'nosi bir xil. Ammo o'zbek tilidagi "tulkilik qilmoq" fe'li "tulki" so'ziga + "lik" ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Bu esa ularni farqi tomonlari mavjudligidan darak beradi.

Kunin A. V. o'zining "Ingliz va rus tillarining frazeologik birliklarining tahlillari" kitobida juda ko'p frazeologik birliklarni tahlillarini havola etadi. Hayvon nomli frazeologik birliklar metaforik so'z birikmalarining manbai bo'lib xizmat qiladi va har ikki tilda ham konnotativ salohiyatga ega. "As polite as a lamb" (inglizcha) "Qo'yday yuvvosh" (o'zbekcha) Bu misoldagi ingliz tilidagi Lamb o'zbek tilidagi "Qo'zi" ma'nosiga to'g'ri keladi, qo'ydan yuvvosh iborasi bilan to'la qonli ma'nodosh bo'ladi. Har ikkala ibora, hayvonning fe'l-atvori asosida ko'chma ma'no sifatida qo'llaniladi.

"A hungry fox dreams about chicken" iborasi esa tilimizdagi "Tuya hammomni orzu qilibdi" iborasi bilan barobardir. Bu misolda ikki xil xarakterli hayvonlar bir xil ma'noli holatni ifoda etadi. Tuya hamda Tulki amalga oshmaydigan ish harakatni kitobxoniga yoki tinglovchilarga yetkazib beradi. Ammo iboralar tarkibidagi hayvonlar "Tuya" va "Tulki" na ko'rinish na fe'l atvor jihatidan bir biriga mos emas. Buning sababi har ikkala mamlakat faunasiga hayvonlarning mavjudligi bilan bog'liq. Mamlakatimizning ayrim hududlarida tuyalar uy hayvonlari sifatida boqiladi. Tulkilar esa o'zbek xalqi bu noyob, g'ayrioddiy mavjuzod hisoblanadi. Bizning madaniyatimizda "Tulki" salbiy xarakterdir.

Hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarimizni majoziy inson xususiyatlariga kiritish til rivojlanishining tabiiy bosqichidir. Zoomorfizmlar va ulardan olingan leksik birliklarni qiyosiy o'rganish bugungi kunda madaniyatlararo va tillararo muloqotning kuchayishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, frazeologik birliklarda hayvonlar tasvirlarini tadqiq qilish dunyoning milliy til tasvirining muhim tarkibiy qismlaridan birini qayta qurish va har qanday tilning lingvistik-madaniy sohasining qimmatli manbalarini aniqlashga yordam beradi. Zoonimlar odamlarning kundalik hayotida katta rol o'ynaydi va ular haqidagi tasavvur har doim inson ongida mavjud. O'zbek va ingliz tillarining genetik va madaniy tarixiy aloqalari farqlanishiga qaramay, ularning ma'lum miqdordagi frazeologik birliklari va o'xshash semantikasini ifodalovchi og'zaki zoonimlar mavjud. O'rganilayotgan misollarda ularning o'ziga xosligi, geografik sharoit va til omillari bilan bog'liqligi isbotlangan.

### References:

1. Bragarnik – Stankevich O. S. "Semantic Division of English Verbal Zoonyms"
2. D.U. Ashurova-M.R. Galieva "Cultural linguistics"
3. Kunin A.V. "Analyses of phraseological units of English and Russian languages",

Dictionary of English and Russian phraseology”.

4. Kunin A.V. “ Modern phraseology of the English language”

